



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021-yil
yanvar–aprel oylarida





Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarni oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.


Xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona
va tashkilotlar ulushi

74,9 %

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi
86,4 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi
30 542,2 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan
bozor xizmatlari
hajmining o'sish
sur'ati
122,6%





Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2021-yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **30 542,2 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **8 033,6 mlrd. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,6 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar-aprel oylarida)





Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar jami	30 542,2	122,6
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 618,4	125,6
Moliyaviy xizmatlar	9 553,3	123,3
Transport xizmatlari	3 013,8	121,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 924,6</i>	<i>125,5</i>
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 108,6	109,0
Savdo xizmatlari	7 053,2	108,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 201,7	131,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 571,8	146,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	685,4	130,2
Ijara xizmatlari	566,9	150,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	242,5	165,0
Shaxsiy xizmatlar	392,6	131,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	934,0	129,0
Boshqa xizmatlar	1 600,0	146,7



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi

Eng yuqori ko'rsatkich

Eng past ko'rsatkich



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar**



**Me'morchilik,
muhandislik izlanishlari,
texnik sinovlar va tahlil
sohasidagi xizmatlar**



**Sog'lijni saqlash
sohasidagi xizmatlar**



Ijara xizmatlari



Shaxsiy xizmatlar



**Kompyuter va maishiy
tovarlarni ta'mirlash
bo'yicha xizmatlar**





Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2021-yil yanvar–aprel oylarida ularning ulushi **31,3 %** ni tashkil etdi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,8 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmda **32,6 %**ni tashkil etdi. 2020-yilning shu davrida kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,5 %**.

2021-yil yanvar–aprel oylarida yuqori o'sish kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (65,0 %), ijara xizmatlarida (50,4%), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (46,8 %), boshqa xizmatlarda (46,7 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (31,8 %), shaxsiy xizmatlarda (31,2 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (23,3%) qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi – **28,1 %**. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida esa **12,4 %** kuzatilgan.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021-yil yanvar–aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **23,1 %** ni tashkil etdi, bu esa **7 053,2 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida ularning hajmi **5 570,6 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmida **24,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020 y.
yanvar–aprel

Xizmatlar hajmi
5 570,6 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
96,7 %

Ulushi
24,7 %

2021 y.
yanvar–aprel

Xizmatlar hajmi
7 053,2 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
108,4 %

Ulushi
23,1 %





Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar


2021-yil yanvar–aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarim qismini, aniqrog'i **48,2 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tuzilmasi (2021-yil yanvar–aprel oylarida)

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosи, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo xizmatlari



Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida chakana savdo ulushi **49,0 %** ga yetdi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlар miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021-yil yanvar–aprel oylarida)



2021-yil yanvar–aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **9 553,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida ularning hajmi **7 341,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021-yilning o'tgan davrida ularning umumiyl xizmatlar hajmini dagi ulushi **31,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida ularning ulushi **32,6 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **2 212,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021-yil yanvar–aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **123,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **128,1 %** ga yetgan.



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,7 %** ni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar–aprel oylari yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **5,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tuzilmasi

(2021-yil yanvar–may oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **91,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,0 %** ga to'g'ri kelgan.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020-y.
yanvar–aprel**

**2 011,2
mlrd. so'm**

112,4 %

8,9 %

**2021-y.
yanvar–aprel**

**2 618,4
mlrd. so'm**

125,6 %

8,6 %



12

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi



Toshkent shahar statistika boshqarmasi




2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021-yil yanvar–aprel oylarida ularning ulushi **60,9%** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi



Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **67,7 %** ga yetgan.

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti – kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

1 012,4
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

1 571,8
mlrd. so'm

2020-y.
yanvar –
aprel



2021-y.
yanvar –
aprel

92,0 %

O'sish sur'atlari, % da

146,8 %

2021-yil yanvar–aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **1 571,8 mlrd. so'mga** yetib, bozor xizmatlari umumiyligi ulushi **5,1 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **146,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar–aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **1 012,4 mlrd. so'mga** teng bo'lgan. 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati **92,0 %** qayd etilgan.

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

823,3

1 108,6

2020-y. yanvar–
aprel

2021-y.



O'sish
sur'ati, % da

79,2

109,0

2020-yil yanvar–aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **285,3** mlrd. so'mga ortdi.

15

Toshkent shahrida xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tuzilmasi

77,0 %

2021-y. yanvar–aprel

23,0 %

20,2 %

79,8 %

2020-y. yanvar–aprel

 **Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

 **Yashash bo'yicha xizmatlar**

2021-yil yanvar–aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **77,0 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar–aprel oylarida ularning ulushi **79,8 %** ni tashkil etgan.

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tibbiyot yonalishidagi tashkilot va korxonalar, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya xizmatlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

yanvar–aprel

2020-y.

2021-y.

401,4
mlrd. so'm

Xizmatlar
hajmi

685,4
mlrd. so'm

83,5 %

O'sish
sur'ati

130,2 %

1,8 %

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

2,2 %





Toshkent shahar statistika boshqarmasi


2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tuzilmasi, % da (2021-yil yanvar–aprel oylarida)



2021-yil yanvar–aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi eng katta ulush – **15,0 %** (2020-yil yanvar–aprel oylarida – **15,4 %**)ni Yunusobod tumani tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangihayot tumanida – **0,8 %** (2020-yil yanvar–aprel oylarida – **0,8 %**) qayd etildi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi

2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar–aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021-y.	2020-y.
Toshkent shahrida	30 542,2	122,6	101,6
tumanlar:			
Bektemir	1 044,4	135,1	98,3
Mirzo Ulug'bek	3 130,6	125,1	94,1
Mirobod	3 697,9	118,4	108,0
Olmazor	2 481,4	126,2	104,0
Sirg'ali	1 379,3	108,5	72,0
Uchtepa	1 903,5	113,8	98,1
Chilonzor	3 779,4	124,9	111,4
Shayxontohur	3 520,8	120,8	103,1
Yunusobod	4 593,8	119,6	104,7
Yakkasaroy	2 678,1	119,2	82,1
Yangihayot	241,9	127,6	–
Yashnobod	2 091,1	137,5	113,4



2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida

2021-yil 1-may holatiga ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

75 984
birlik

2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

116,9 %



65 005
birlik



74,9 %



2020-yilning mos davrida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Ularning umumiyl sonidagi ulushi



Toshkent shahar statistika boshqarmasi




2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **74,9 %**, sanoatda **15,9%**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **1,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasida **8,2 %** ga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 2021-yil 1-may holatiga tuzilmasi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020-yilning 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **74,3 %** ni, sanoatda **16,8 %** ni, qurilishda **8,0 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida **0,9 %** ni tashkil etgan.




2021-yil yanvar–aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlar sohasini rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021-yil yanvar–aprel oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **72,3 %** ni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining 2021-yil 1-may holatiga ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

1-iyun holatiga

2021-y.

2020-y.

84,6 %

2021-yilning 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **86,4 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
tel.: 71-203-88-15